

UDK-090001

**INSON TAFAKKUR TARZI TRANSFORMATSIYASIDA POSTNOKLASSIK FAN DAVRINING
O'RNII**

Raximov Bunyod Baxtiyorovich

bunyodr@gmail.com +998885769888

MIRZO ULUG'BEK nomidagi

*O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy Fanlar Fakulteti Falsafa yo'nalishi I bosqich
magistranti*

Annotatsiya: *Inson tafakkuri o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, buni barcha makon va zamonda namoyon qiladi. Shu bois, ushbu maqolada insoniyat tafakkurining o'zgarib borishi-transformatsiyalashuvi, tafakkurining asosiy xususiyatlari va uning fan bilan o'zaro bog'liq jihatlari falsafiy jihatdan izohlangan. Shuningdek hozirgi axborotlashgan jamiyatda insoniyat tafakkuriga oid yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Tafakkur, nutq, o'zgaruvchanlik, ong, globalizatsiya, fan, kreativlik*

XXI asrda yashayotgan inson o'zining atrofida bo'layotgan tinimsiz o'zgarishlarning guvohi bo'lmoqda. Shu bois ham insoniyat tafakkuri zamon bilan birga rivojlanishda, o'zgarishda. Tafakkur va dunyoqarsh shu qadar qimmatliki yer yuzida faqatgina inson zotigina ushbu ne'matdan bahramand bo'la oladi. Inson tafakkuriga qomusiy lug'atlarda quyidagicha ta'rif berilgan: tafakkur inson aqliy faoliyatining eng yuksak shakli bo'lib obyektiv va ijtimoiy voqelikni inson ongida aks ettiradi. Tafakkur borliqda kechayotgan jarayonlarni bilish vositasi, shuningdek, inson ratsional faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. N Shermuhamedova tafakkurga quyidagicha ta'rif beradi: "Inson tafakkur jarayoni mahsulini nutq orqali bayon qiladi, shu sababli tafakkur va nutq bir biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayadi ya'ni uning tafakkur tarzi o'zgaruvchanlik qobilyatini namoyon qiladi va ushbu jarayonda orttirilgan tajriba jamiyatdagi boshqa kishilarga ham beriladi." Aynan inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi, u fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyiligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita va bilvosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson tafakkur orqali muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tafakkur bir qancha fan sohalarining tadqiqot ob'yekti hisoblanadi, shu

sababli biz ushbu maqolada gumanitar fanlar nuqtayi nazaridan yondashib, falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, o'zgarib borishi va uning fan bilan uzviy bog'liqligi haqida Yevropasentrizm va Osiyosentrizm kabi g'oyalardan xoli ravishda xolisona fikr yuritamiz. Insoniyatning uch mingyillik tarixidan bizga ma'lumki inson tafakkur tarzi masalalari turli ijtimoiy tarixiy davrlarda turlicha bo'lgan. Masalan, antik davrda sofist tafakkur, o'rta asrlarda teologiyaga asoslangan eklektik tafakkur, yangi davrda esa dialektik tafakkur tarzida namoyon bo'lgan. Ushbu misollarning o'zi tafakkurning transformatsiyalashuvidan dalolat beradi. Xo'sh, postnoklassik fan davri ya'ni siz-u biz yashayotgan zamonaviy fan davrida insoniyat tafakkuri qanday bosqichda? Gap shundaki, XIX-XX asrlar chegarasida, ya'ni postnoklassik fan davrida inson tafakkuri va dunyoqarashi o'zidan oldingi ajdodlarining olam haqidagi tasavvuri va fikrlash jihatidan tubdan farq qilgan. Bu davr fanining postnoklassik deb atalishiga sabab, mazkur asrlarda fanning turli sohalarida sezilarli darajada inqilob yuz berdi. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarda tafakkurning mantiqiy asoslari tanqidiy tahlil qilindi va bir qancha yangi fanlar vujudga keldi. Masalan, fizikada klassik Nyuton fizikasining falsafiy asoslarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilgan olamshumul nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratildi. Ushbu nazariyalar postnoklassik fan davri tafakkur tarzining yangicha g'oyalar bilan boyishiga sabab bo'ldi. Bu ayniqsa XX asr kosmologiyasi va tabiatshunosligida ko'rindi. Biologiya fanida genetika asoslari rivojlandi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda yangi fundamental nazariyalar paydo bo'ldi. Shu o'rinda XX asrning ikkinchi yarmi zamonaviy fan davridagi yangiliklar yangi inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlar ilmiy adabiyotlarda ko'pincha fan-texnika inqilobi sifatida (FTI) tavsiflanadi. Fan texnika inqilobi davrida iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda fan yutuqlari misli ko'rilmagan miqyosda amaliyotga – sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, kundalik hayotga joriy etiladi. Albatta, zamonaviy fan davridagi bunday o'zgarishlar insoniyat oldiga fanning ma'rifatga yoki jaholatga xizmat qilishi masalalarini qo'yadi. Sababi postnoklassik fan davri yutuqlari inson taraqqiyotiga xizmat qilgan bo'lsada, insoniyat bu davrda ikkita jahon urushini ko'rdi. Bundan tashqari hozirgi zamon fan davri insoniyat oldiga globallashuv, geninjeneriya, biotexnologiya, ekologiya kabi kechiktirib bo'lmas masalalarni qo'ydi. Masalan globallashuv iborasiga birinchi prezidentimiz I.A Karimov quyidagicha ta'rif beradi „Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha ko'rishi, his etishi mumkin“ . Bundan tashqari bugungi kundagi ekologiya demografik muammolar fonida insoniyatning ekologik madaniyati, ekologik tafakkurini qayta ko'rib chiqishga undamoqda, chunki zamonamizning asosiy global ekologik muammolari hisoblangan: "issiqxona effekti", ozon qatlaminin yemirilishi, "kislota yog'inlari", chiqindilarni yo'q qilish muammosi, atrof-muhitning ifloslanishi, cho'llanish, tuproq degradatsiyasi, tuproq eroziyasi, o'rmonlarning kesilishi, hayvonlar sonining kamayishi va qirilib ketishi, iqlimning o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, aholining kasallanishi, fotokimyoviy tutun va boshqalar va bu muammolar har bir

insonning e'tiborini tortmasdan qolmaydi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki fan taraqqiyotining barcha davrida xususan hozirgi zamon postnoklassik fan davrida insoniyat tafakkuri transformatsiyalashib bormoqda. Fan esa inson va insoniyatning kelajagiga tahdid soluvchi xavf-xatardan holi bo'lishi va u faqat yaratuvchanklik uchun xizmat qilishi, biz esa fanning bunyodkorlik yo'lida xizmat qilishini ta'minlashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov.I.A.Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.-T.:Ma'naviyat 2008
2. Shermuxamedova.N.A. Falsafa.-T.:Ipk Yo'li Poligraf,2022
3. G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: O'zbekiston, 2012.
4. To'rayev B.O. O'zgarayotgan tafakkur.//”O'zbekiston ovozi” № 11.1999yil
5. Falsafa qomusiy lug'ati. — T.: Sharq, 2004.

Internet saytlari:

1. www.articl.com
2. www.philosopher.uz
3. www.NuUz.uz